

O'quvchilarning texnik ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda texnologik ta'lim darslarini o'rni

Zuhriddinova Nilufar Nusrat qizi,
Andijon davlat pedagogika instituti
fizika va texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi,
Mamatqulova Xosiyatxon Shavkatbek qizi,
Maxamatova Moxizarbonu Akmaljon qizi
texnologik ta'lim yo'nalishi talabalari

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisdá ijodkorlik, qobiliyat, texnik ijodkorlik, o'quvchilarning texnik ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish, o'quvchilarning texnik ijodkorligini tashkil qilishda ikki o'zaro bog'liq vazifa haqida so'z yuritiladi.

***Kalit so'zlar:** ijodkorlik, qobiliyat, texnik ijodkorlik, mehnat, kashfiyot, ixtiro, ratsionalizatsiya, texnologik jarayon.*

АННОТАЦИЯ

В данной дипломной работе говорится о творческих способностях, способностях, техническом творчестве, развитии технического творчества учащихся, двух взаимосвязанных задачах в организации технического творчества учащихся.

***Ключевые слова:** творчество, способность, техническое творчество, труд, открытие, изобретение, рационализация, технологический процесс.*

ANNOTATION

This thesis talks about creativity, ability, technical creativity, development of students' technical creativity, two interrelated tasks in organizing students' technical creativity.

***Key words:** creativity, ability, technical creativity, labor, discovery, invention, rationalization, technological process.*

O'quvchilarni yoshligidan mehnatga o'rgatish kelajak hayotlaida juda katta samara beradi. Bunda mehnat ko'nikmalari bilan birga o'quvchilarda kreativlik, texnik bilimlar, kollektiv ijodkorlik kabi qobiliyatlarni ham shakllantirish zarur. Mashhur idealist faylasuf E.L. Radlov tomonidan yigirmanchi asr boshidagi eng obro'li falsafiy lug'atlardan birida ijodkorlik "biror narsaning yaratilishi bilan bog'liqligi, yaratilish qobiliyati Xudoga eng xos bo'lganligi va odam faqat nisbatan ijodiy harakatlarni bajarishi mumkin ..". Bunday bayonotlar bilan bir qatorda, ijodiy jarayon tarkibida ongsiz jarayonlarning mavjudligiga e'tibor qaratildi. Keyinchalik, ijodkorlikning har xil turlarini ilmiy o'rganish o'zgargani sari, umuman unga bo'lgan munosabat ham, ijodga berilgan ta'riflar ham o'zgardi. So'nggi paytlarda, asosan, yangi mahsulotning yaratilishi ilgari bo'lmagan ijodkorlik bilan bog'liqligiga e'tibor qaratildi; ijodkorlik inson faoliyatining turli

sohalarida, yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlar vujudga kelganda namoyon bo'ladi.

Ijodkorlik - bu ma'lum bir mavzu uchun ilgari noma'lum narsani yaratishga, kashf etishga hissa qo'shadigan faoliyat. Yana bir nuqta ijodiy faoliyat ko'lami bilan bog'liq. Ijtimoiy amaliyotda, qoida tariqasida, ijodkorlik kashfiyot, ixtiro, ratsionalizatsiya kabi yangilik toifalari bilan o'lchanadi. So'nggi paytlarda tashkiliy va texnologik jarayonlarga yangilik kiritish bilan bog'liq innovatsion (innovatsion) faoliyat haqida ko'p narsa aytiladi. Ammo bunday faoliyatni ratsionalizatsiya deb atash mumkin. Texnologiya fani darsi maktabdagi boshqa fanlar uchun umumiy didaktik prinsiplarni qo'llasada, uning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. O'quvchilar bilish faoliyati bilan emas, balki yaratish faoliyati bilan shug'ullanadilar. Texnologiya fani predmetlari, qurollari, jarayonlari oddiy o'rganish obyekti sifatida emas, balki o'quvchilar ishlarini faollashtiruvchi ko'rsatmalilik vositasi, didaktik material, ta'limning texnik vositasi sifatida xizmat qiladi. O'quvchilarning bilishga oid qo'llanilgan usullarni, paydo bo'lgan muammo va uni yechish yo'llarini tushunishi bo'yicha fikr yuritishi, tahlil etishi, o'quvchilarning individual tarzda erishgan natijalarini aniqlashda ko'maklashishi, jamoa bo'lib yaratilgan ta'limiy natijalarini aniqlashi, izlanishli, ta'limiy vaziyatlarning asosiy texnologik elementlari: motivatsiya, muammolar qo'yish, vaziyat ishtirokchilari tomonidan muammoni yechish, ta'limiy natijalarni namoyon etish, ularni bir-birlari bilan qiyoslashdan iborat.

O'quvchilar ijodkorlik faoliyatida diqqat, psixik faoliyatning yo'naltirilishi bilan birga uning to'planishi mazkur faoliyatga hech qanday aloqasi bo'lmagan boshqa narsalardek, hamma faoliyatdan diqqatni chalg'itish demakdir. Diqqatning bir joyga to'planishi deganda mazkur faoliyatga butunlay berilish, unga ozmiko'pmi chuqur e'tibor berish tushuniladi. Qiziqish bilimlarning ongli, puxta, barqaror, anglangan holda o'zlashtirilishida ko'nikma va malakalarni shakllantirishda shaxs qobiliyati, zehni, o'quvchanligi rivojlanishiga, olamni mukammalroq bilishga, bilim saviyasini kengayishiga yordam beradi. Qiziqish motiv singari borliqning mo'jizakor tomonlarini bilishga, fan asoslarini egallashga, faoliyatning turli-tuman shakllariga nisbatan ijodiy yondashishni vujudga keltiradi. O'quvchilarni ijodkorlikka mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishini shakllantiradi, o'quvchilarda ishchanlik, g'ayrat shijoat, egilmas irodani tarkib toptirishga puxta shart-sharoit yaratadi. O'quvchilarning texnik ijodkorligini tashkil qilishda ikki o'zaro bog'liq vazifani e'tiborga olish lozim. Ularning birinchisi o'quvchilar ijodkorlik faoliyatida mustaqil fikrlashini rivojlantirish, bilimlarni egallashdagi intiluvchanligi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirilishi bilan; ikkinchisi - o'zlashtirilgan bilimlarni ta'limda va amaliy faoliyatda mustaqil qo'llay olishga o'rgatish bilan belgilanadi.

Texnik ijodkorlik o'quvchilar egallayotgan bilimlarining mustahkamligi va mukammalligini ta'minlash, ularda faol va mustaqil fikrlovchi shaxs xislatlarini shakllantirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat turi hisoblanadi. Bu holat, ayniqsa bo'lajak mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarining fan asoslarini o'zlashtirishida, keyinchalik bu jarayonga bevosita rahbarlikni

amalga oshirishda ijodiy ishlar shakllarini ishlab chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodkorlik faoliyatida o'quvchining psixologik xususiyatlari aqliy yaratuvchanlik, ixtiroga moyilligi, hohishi va bevosita qiziqishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Agar biz ijodiy faoliyatni psixologik-pedagogik yondashuv nuqtai nazaridan ma'lum bir mavzu uchun yangi bilim, ko'nikma va boshqalarni olish shaklida yangi qadriyatlarni yaratish jarayoni deb hisoblasak, ijodkorlik esa bunday faoliyat sifatida qaraladi. Ma'lum bir mavzuga ilgari noma'lum bo'lgan narsalarni kashf qilish yoki yaratishga hissa qo'shadi. Bu yondashuvning asosiy vositalari: intuitiv fikrlash, ijodiy tasavvur, mantiqiy fikrlash dizayndagi shaxsiy-faoliyat yondashuvi ta'lim maydonini loyihalashda ijodiy faoliyat sifatida qaraladi. U faqat ham mualliflar, o'quv jarayoni sub'ektlari, xususan, o'quvchi, madaniyat va shaxsning muloqotida paydo bo'lishi mumkin. Shuni aytish joizki, ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatni samarali tashkil etishni amalga oshirish o'quv sharoitlarini yaratishga, o'qitish usullarini ushbu aniq shartlarga asosan tanlashga bog'liq; ijodkorlikning o'ziga xosligi va o'rganilayotgan materialning xususiyatini, o'quvchilarning loyihalashtirish metodiga egaligini hisobga olgan holda, loyihalashtirish metodi o'quvchilarning o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatida ijodiy o'z-o'zini anglashi va unda ijodiy o'zini-o'zi rivojlantirish asosini tashkil etadi. O'quvchilarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish ijodkorlikni rivojlantirish va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish usullaridan biridir. O'quvchining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kunda texnika taraqqiy etayotgan davrda bu muhim omillardan biridir. Ijodkorlik faoliyatida qobiliyat muhim bir omil hisoblanadi. Lekin qobiliyat o'zi nima?

Qobiliyat-shaxsning individual psixologik xususiyati bo'lib, unga bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni o'zlashtirilishining to'liqligi, yengilligi, chuqurligi, hamda turli faoliyatni o'zlashtirish va uni muvaffaqiyatli bajarishga bog'liqligidir. Ijodkorlik qobiliyatlari ijodkorlikda o'quvchilarni psixologik xususiyatlarini ko'rsatsa ularni jismoniy, aqliy fiziologik jihatdan buyumlarni, har xil operatsiyalarni bajara olishi ularni rivojlantirish ijodkorlikda fiziologik xususiyatlarini o'rganish texnologiya darslarida o'qituvchining mahoratini ko'rsatib beradi. Ijodiy mehnat asoslarini o'zlashtirish va ijodkor shaxsni tarbiyalash o'quvchilarning ijodiy va ijtimoiy faolligini oshirishga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida ma'naviy barkamol, bilimlarni puxta egallagan yoshlarni tarbiyalashga, fan-texnika taraqqiyotining jadallashuviga xizmat qiladi. O'quvchilarni mehnatga muhabbat va yaratuvchanlik faoliyati jarayonida oz bilim va malakalarini ijodiy qollash konikmalarini shakllantirish, texnik ijodiyotni rivojlantirishning asosiy omillari hisoblanadi. Osib kelayotgan yosh avlod texnik ijodkorlik qobiliyatini, texnika sirlarini anglashi va shu yonalishda talim berilsa, respublikamizda erishilgan fan va texnika yutuqlariga tayanib ish korilsa, uning ildizini yanada chuqurroq tushunib kelajakda kuchli texnik mutaxassislar, fan va texnika yutuqlariga oz hissasini qosha oladigan pirovardida esa shu yoshlar chet el mahsulotlari va asbob-uskunalaridan kuchliroq mashinalar yaratish qobiliyatiga ega bolgan, shu yolda xizmat qila oladigan bolishi lozim. Ozbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishuvining talim va tarbiya milliy

shakllarini yanada rivoj topishida ham katta imkoniyatlar ochib berdi. Yosh avlodni an'analarimiz ruhida tarbiyalab hunar orgatilsa, ijodkorlikka yonaltirilsa, xalqimizning urf-odatlari, madaniyatimiz va tilimizga munosabatlar ildizi chuqurligi yanada oydinlashadi. Texnik ijodiyotni rivojlantirishda umuminsoniy qadriyatlar doimo diqqat markazida bolish uni amalga oshirish uchun shaxs erkinligi va demokratiyani himoyalash har bir kishining vazifasidir. Texnik ijodkorlikni rivoj topishida oquvchilarning tabiatga, oz vataniga mas'uliyatli bolish munosabatlarini tarkib toptirish muhimdir. Texnik ijodkorlik katta tarbiyaviy potentsialni oz ichiga oladi. Texnik ijodiyot oquvchilarni ona Vatan, mehnatga bolgan muhabbatini ostirib ularni erkin fikrlashga, mustaqillikka undaydi.

Texnik ijodkorlikni rivojlantirishda o'quvchi yoshlarning o'zlari qiziqib sevib o'rganadigan turli yo'nalishlari bo'lishi mumkin. Texnik ijodiyotga o'quvchilarni yo'naltirishda birinchi navbatda, milliy xalq hunarmandchiligiga, an'analarning milliy estetik manbaiga hamda boy sharq miniatura san'ati, haykaltaroshlik, kulolchilik, yogoch o'ymakorligi va hunarmandchilikning boshqa turlariga alohida e'tibor berish lozim.

XULOSA. Davlatimizning mustaqillikka erishuvi o'z navbatida har qanday taraqqiyparvar jamiyatga iste'dodli shaxslar zarurligi nuqtai nazaridan iste'dodli bolalarni aniqlash, tarbiyalash va o'qitish respublikaning bolajak aql zakovatli va ijobiy fikrlovchi kuchlarini tayyorlashning muhim omilidir. Iste'dodlarni namoyon qilish va ularni sonini oshirish uchun sharoit yaratish maqsadida avvalgi yutuq, tajribalarni ommaviylashtirish, ularning ijobiy qiziqishlarini rivojlantirib turli tadbirlar, korik-tanlovlar o'quvchilar texnik ijodiyoti korgazmalari uchrashuvlarga jalb etish muhimdir. Iste'dodli bolalarni aniqlash, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlash bo'lajak respublikamizning iqtidorli kuch qudratini tayyorlashning istiqboli bilan bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ubaydullayev S.Q.- Texnik ijodkorlik va dizayn. O'quv qo'llanma. Andijon: 2023

2. M.X. Shomirzayev. "Texnik ijodkorlik va dizayn". O'quv qo'llanma. Termiz-2019

3. Sh. Kenjabayev, Sh. Qayumova. Texnik ijodkorlik va dizayn. Ma'ruzalar matni. Namangan 2005.

4. Alimov. N Talabalar ilmiy texnikaviy ijodkorligi ijtimoiy pedagogik tizmi sifatida. Kasb hunar ta'limi T.: 2006

5. Sharipov. S. Sh, Qo'ysinov. O.A, Ergashev. Sh.T. Texnologiya fanini o'qitish va va psixologik xizmatlarni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish //o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma T.: 2017

6. Toxirov. O'. O Texnologiya o'quv fani davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini ta'lim amaliyotiga joriy etish metodikasi T.: 2017

7. Ulukhanov, I., & Khusayinova, G. (2024). DIGITALIZED LEARNING AND ITS EFFECTIVENESS IN TECHNOLOGICAL EDUCATION. *Science and innovation*, 3(B4), 236-243.

8. Uluxanov, I. T. X. J., & Ubaydullaev, S. Q. (2021). O'QUVCHILARNING KREATIV KOMPETENTLIKINI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI. *Scientific progress*, 2(8), 814-822.